

## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH

**Kamolova Muxtasar Rustamovna**

*Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Aniq fanlar" kafedrası Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** «Informatsiya» axborot - atamasi lotincha so'z bo'lib, xabardorlik, biror hodisa yoki biror kishi faoliyati xaqida xabarga ega bo'lish ma'nosini bildiradi. Axborot boshqaruv tizimiga uni rivojlantirish va takomillashtirish maksadida faol ta'sir etish uchun zarur ma'lumotlar yigindisidan iboratdir. Yetarli va aniq axborotga ega bo'lmay boshqarish mumkin emas.

**Kalit so'zlar:** Informatikadan o'quv va metodik adabiyotlar tahlili, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha dasturiy ta'minotini qo'llash.

Informatika, axborot texnologiyalari va ularni o'qitish metodikasi haqida tushunchalar, informatika o'qituvchilarining roli, informatika kursining pedagogik funksiyalari; informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning tuzilmasi va mazmuni; davlat ta'lim standartlari, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda uzviylik va uzluksizlik, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning maqsadi va vazifalari; axborot tizimlari va texnologiyalarini o'qitish-tarbiya jarayonida nima maqsadida va qanday qo'llash mumkinligi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llashni bilishi kerak;

+ informatikadan o'quv va metodik adabiyotlar tahlili, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha dasturiy ta'minotini qo'llash;

+ informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish, asosiy didaktik prinsiplarini informatikada qo'llash, informatikani o'qitishda har xil tashkiliy shakllaridan, usullardan, vositalardan foydalanish, informatikadan o'quvchilarini bilimni nazorat qilish, baholash usullaridan foylanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovasion metodikalar va interfaol usullarni informatika o'qitishida qo'llash;

+ informatika va axborot texnologiyalari xonasida mashg'ulotlar o'tkazish, informatikadan sinfdan tashqari ishlarini olib borish, informatika o'qitishda Internet saytlaridan foydalanish bo'yicha etarlik ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak;

+ bo'lajak informatika o'qituvchisi yangi axborot texnologiyasini egallagan, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarni chuqur o'rgangan, jamiyatni, shuningdek, ta'limni axborotlashtirillayotgan sharoitda ishlash uslublarini egallagan va ularni o'quv jarayonida foydalana olish malakalariga ega bo'lish kerak

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

“Informatika va axborot texnologiyalari” fani umumkasbiy fanlarining asosiy fanlaridan biri hisoblanib, akademik litseylarda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan «Informatika» yo‘nalishidagi hamda «Pedagogika», «Psixologiya», «Pedagogik texnologiyalar» fanlarining nazariy va amaliy xulosalariga tayanadi

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanini o‘zlashtirish uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish, darslarni savol javob tarzida qiziqarli o‘tkazish alohida ahamiyatga ega. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, elektron materiallar, virtual stendlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim. Bu ta‘lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu yesa ta‘limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma‘lum bir ta‘lim oluvchining shaxsini yemas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta‘lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta‘lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta‘limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta‘limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va yerishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e‘tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta‘lim. Ta‘lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta‘lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta‘minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma‘ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta‘lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga yerishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016. 56 b.
2. M. Aripov, M. Muhammadiyev. Informatika, information texnologiyalar. Darslik. T.TDYuI, 2004 y.
3. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T. "Faylasuflar jamiyati", 2013 y.
4. B.Mo'minov. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2014 y.
5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) – Nizomiy nomidagi TDPU rasmiy sayti
6. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) – Ziyonet axborot ta'lim portali
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
8. <http://www.etc.msiu.ru/materials/Book1.2/index1.html>
9. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO 'TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
10. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLIHNING ZAMONAVIY USULLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
11. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO'LISHIDA GIPODINAMIYANING TA'SIRI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
12. Usmonov S., Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO'LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.

13. Usmonov S., Isroilov S. CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO'LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 196-199.

14. Isroil o'g'li X. M., Abdusubxon o'g'li U. S. GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.

15. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BOLALARDA GASTROENTRITNING NAMOYON BO'LISHI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.

16. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KAM HARAKATLIK NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLARNI XALQ TABOBATI BILAN DAVOLASHNING TOP 10 TA USULI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.

17. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. GIPERTONIYA KASALLIGINI RIVOJLANISHINI OLDINI OLISHNING ENG YAXSHI USULLARI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.

18. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. QONNI SUYULTIRADIGAN TOP-10 MAHSULOT //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.

19. Abdusubxon o'g'li U. S. ELEKTROMAGNIT MAYDONINING ORGANIZMGA TA'SIRI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 2.

20. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KONDILOMA VIRUSLARINI DAVOLASHDA KRIOGEN TERAPIYA //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.

21. Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. TA'LIM JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI //International scientific-practical conference on" Modern education: problems and solutions". – 2022. – Т. 1. – №. 5.

22. Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. FIZIKA FANINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISHNING AHAMIYATI //E Conference Zone. – 2022. – С. 217-219.

23. Abdusubxon o'g'li U. S., Yusubjanovna A. M. YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH //E Conference Zone. – 2022. – С. 33-34.

24. Abdusubxon o'g'li U. S. YURAK QON-TOMIR SISTEMASI KASALLIKLARI. MIOKARD INFAKTI PAYDO BO'LISH MEXANIZMI VA OLDINI OLISH CHORALARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 227-228.